

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muloqotning psixologik tamoyillari xususida	90
M.M.Kaxarova	
Til va nutq tushunchasi	97
M.M.Kaxarova	
Konsept va u bilan bog'liq terminlar xususida.....	103
E.V.Yugay	
Clarity and accessibility as drivers of scientific impact in academic writing.....	107
D.I.Sattarova	
Siyosiy matnlarda intertekstual unsurlar va ularning kommunikativ ahamiyati	112
G.U.Yuldasheva	
Ingliz va o'zbek tilshunosligida "Baxt" va "Baxtsizlik" konseptlarining o'rganilishi.....	117
G.U.Maxmudjonova	
O'zbek tilida orfoepik me'yorlarni avtomatlashtirishning muammolari va yechimlari	123
Sh.R.Askerova	
Metaphor and its types in modern french.....	127
H.U.Davlatova	
Tilshunoslikda nutq ontogenezining psixolingvistik tadqiqi va uning ilmiy-nazariy asoslari	131
Z.S.Kenjaye	
Boysun tumani oronimik tizimida zoonim komponentli oronimlar	138
A.R.Kosimov	
Критическое отношение к собственной педагогической практике.....	143
M.Ш.Бахриддинова	
Антропоцентрический подход в переводе и влияние когнитивных и культурных факторов на восприятие	146
Ч.Х.Чамолов	
Иртиботи забонҳои тоҷикӣ ва ўзбекӣ	151
X.P.Murtozoev, M.A.Ubaydullozoda	
Ҳодисаи савтии ҷойивазкунии овозҳо дар ашъори намояндагони сабки Хуросонии адабиёти тоҷику форс.....	158
X.J.Sayfullayev, F.M.Ulasheva	
Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari	164
S.A.Toshmatova	
Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida milliylik ifodasi: realiyalar va ularning inglizcha tarjimadagi talqini	171
S.M.Muminov, Sh.D.Muxtorova	
Data jurnalistikasi va uning ma'lumotlar tahlilida tutgan o'rni (internet nashrlari misolida)	176
U.To'rayeva	
O'zbek tili grammatikasining zamonaviy o'qitilish usullari: muammo va yechimlar.....	182
H.U.Davlatova	
Nutq ontogenezining lingvistik tadqiqi	187
I.V.Xoldarova	
Raqamli texnologiyalar asosida boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodlari	195
N.ShAbdullayeva	
Teaching the use of thesauruses to english as a foreign language learners: pedagogical approaches and lexical development	198
M.O.Obilov	
Kognitiv sxemalar va freymlar: akademik matn yaratishda shaxsiy tajribaning roli	207
N.Sh.Abdullayeva	
Innovative approaches to teaching english as a foreign language: contemporary methodologies and digital integration	212
Z.A.Akbarova	
Inson dunyo qarashi olamni modellashtiruvchi sifatida	219
I.B.Xabibullayev	
Said Ahmadning "Azroil o'tgan yo'llarda" hikoyasidagi oilaviy munosabatlarda psixofiziologik holat tasviri.....	222
M.X.Hakimov	
Implitsitlik kategoriyasi xususida	227



UO'K: 82-1/-9.159.91

SAID AHMADNING “AZROIL O'TGAN YO'LLARDA” HIKOYASIDAGI OILAVIY MUNOSABATLARDA PSIXOFIZIOLOGIK HOLAT TASVIRI**“THE DEPICTION OF PSYCHOPHYSIOLOGICAL STATES WITHIN THE FAMILY RELATIONSHIPS IN SAID AHMAD'S SHORT STORY “AZROIL O'TGAN YO'LLARDA” (“ON THE ROADS WHERE AZRAEL PASSED”)****ПСИХОФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗОБРАЖЕНИЯ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ В РАССКАЗЕ САИДА АХМАДА “АЗРОИЛ ЎТГАН ЙЎЛЛАРДА” (“ПО ДОРОГАМ, ГДЕ ПРОШЁЛ АЗРАИЛ”).****Xabibullayev Ilhombek Bahromjon o'g'li** 

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fakulteti adabiyotshunoslik kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya

O'zbek adabiyotida oila tasvirida qahramonlarning psixofizologik holati alohida ahamiyat kasb etadi. Qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy psixologik holatlari zohiriy va botiniy olam tutashmasida o'z aksini topadi. Ushbu maqolada Said Ahmadning “Azroil o'tgan yo'llarda” hikoyasidagi oilaviy munosabatlarda qahramonlarning psixofizologik holat tasvirlari tahlilga tortilgan.

Abstract

In Uzbek literature, the psychophysiological condition of characters holds particular significance in the depiction of family relationships. The inner experiences and psychological states of the protagonists are reflected at the intersection of their external and internal worlds. This article analyzes the representations of the characters' psychophysiological conditions within the familial relations portrayed in Said Ahmad's short story “On the Roads Where Azrael Passed.”

Аннотация

В узбекской литературе психофизиологическое состояние персонажей занимает особое место в изображении семейных отношений. Внутренние переживания и психологическое состояние героев раскрываются на пересечении их внешнего и внутреннего миров. В данной статье анализируются особенности отражения психофизиологических состояний персонажей в семейных отношениях, представленных в рассказе Саида Ахмада «По дорогам, где прошёл Азраил».

Kalit so'zlar: psixologiya, ichki kechinma, ruhiy holat, psixofizologiya, oila tasviri, oilaviy munosabatlar, psixologizm, milliy xarakter.

Key words: psychology, inner experiences, mental state, psychophysiology, depiction of the family, family relationships, psychologism, national character.

Ключевые слова: психология, внутренние переживания, психическое состояние, психофизиология, изображение семьи, семейные отношения, психологизм, национальный характер.

KIRISH

Badiiy psixologizmni so'z san'atining muhim kategoriyalaridan biri sifatida o'rganish rus adabiyotshunosligida XIX asrdayoq N.Chernishevskiyning[12:78] tadqiqotlari bilan boshlangan bo'lsa, o'zbek adabiyotshunosligida bu bosqich XX asrning 60-yillariga to'g'ri keladi. So'z san'atida badiiy psixologizm hodisasi ancha chuqur ildizlarga ega bo'lgani singari, adabiyotshunoslikda ham bu masalani o'rganish yangilik emas. Shunday bo'lishiga va badiiy psixologizm masalasi ilmiy tadqiqotlarda ancha-muncha o'rganilganiga qaramasdan, badiiy psixologizmga munosabat nazariy adabiyotlarda aks etmagan. Professor X. Umurov[11:52-54] to 1983 – yilgacha yaratilgan nazariy adabiyotlarda: “Badiiy psixologizm haqidagi fikr-mulohazalarga duch kelmaymiz. Bu esa o'z navbatida nazariya bilan praktika o'rtasida katta “uzilish”ni yuzaga keltirmoqda”, – deb yozadi. Shuningdek, keyingi yillarda nashr qilingan nazariy adabiyotlarda ham bu masala nazardan chetda qolgan. Lug'atlar alifbo tartibida tuziladi, ularda “badiiy psixologizm” tushunchasini berish qiyin

TILSHUNOSLIK

emas. Ammo badiiy psixologizm adabiyot nazariyasining qaysi masalasi ichida tavsiflanishi va o'rganilishi kerak?

Bizningcha, badiiy psixologizm, garchi keng qirrali masala bo'lsa-da, uning ko'proq inson xarakteri bilan bog'liq ekanligidan kelib chiqib, "badiiy obraz" haqidagi bo'limda tavsiflash maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Badiiy psixologizm asosini inson ishtirokidagi hayotiy voqea tashkil qilgan epik va dramatik asarlarda xarakter yaratish vositasi sifatida amal qilsa-da, bu adabiy turlarning har birida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Ya'ni dramatik asarda xarakter yaratishning asosiy vositasi qahramonning nutqi, monolog va dialoglardir. Shuning uchun ham dramatik asarlarda qahramon ruhiy dunyosini ochishning ham asosiy vositasi dialog va monologlar; voqealar rivojiga bog'liq ravishda maktubdan foydalanish mumkin. Badiiy psixologizmning portret, peyzaj [psixologik detal](#), psixologik tafsilot kabi ko'rinishlarini qo'llash imkoniyatlari dramada juda cheklangan: tush, gallyutsinatsiya kabi vositalardan foydalanish ham o'ziga xos murakkabliklariga ega.

"Psixologizmni san'atkorning shaxsidan ajratib tasavvur qilish mumkin emas. Har qanday asardagi psixologizm tasvirida, o'sha asarni yaratuvchi yozuvchining o'ziga xos psixikasi imkoniyatlari namoyon bo'ladi"[11:54].

Oilaviy munosabatlar inson hayotining eng muhim ijtimoiy jihatlaridan biridir. Bu munosabatlar nafaqat ijtimoiy-psixologik, balki psixofiziologik jihatdan ham murakkab va chuqur tahlilni talab qiladi. Insonning ruhiy holati, emotsional barqarorligi, stressga chidamliligi va jismoniy sog'ligi ko'p hollarda oilaviy munosabatlar bilan bevosita bog'liqdir. Psixofiziologiya – bu insonning ruhiy jarayonlari va ularning jismoniy (fiziologik) asoslari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganuvchi fan. Ushbu fan sohasi orqali insonning stress, xavotir, quvonch, g'azab kabi holatlarda qanday fiziologik o'zgarishlar sodir bo'lishi o'rganiladi. Oilaviy munosabatlar esa ushbu holatlarning doimiy va dinamik manbai hisoblanadi.

Psixofiziologiya atamasi aslida psixologiya sohasiga tegishli bo'lib – psixik va fiziologik jarayonlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi sohadir. Bu termin 1830–yilda fanga olib kirilgan bo'lib, bugungi kunda bu atamadan nafaqat psixologlar, balki fanning boshqa soha vakillari ham foydalanib kelmoqda. Jumladan, adabiyotshunoslar tomonidan badiiy asar qahramonlarining xarakteri, ichki ruhiyatini ochib berishda muhim ro'l o'ynashi mumkinligi aytilmoqda. Qahramon xarakterini ochib berishda psixofiziologik holatning ishlatilishi adabiyotshunoslarimizdan M.Qo'chqorova[7] va Y.Solijonov[10] qarashlarida kengroq yoritilgan. "Hozirgi o'zbek nasrida inson ruhiyatini kashf etishda adiblarimiz turfa xil psixologik tasvir vositalaridan, chunonchi, tush, xotira-xayol, ichki va tashqi monolog, dialog, polilog, muallif bayoni, peyzaj, psixologik tasvir, qahramonlarning mimika va jestlari, illyuziya, gallyusinatsiya, egizak obrazdan keng foydalanishmoqdaki, bular barchasi tadqiqotchilarimizdan yangicha nigoh bilan tadqiq etishni talab etmoqda"[7:175]. Xalqning uzoq yillar davomida shakllangan qadriyatlari qahramon nutqi orqali namoyon bo'lishi hammamizga ma'lum. Ana shunday qahramon xarakteri, uning milliy xususiyatini ochib berishda psixofiziologik[4] tasvir vositasining ham o'rni muhimdir.

Ayniqsa, o'zbek nasrida milliy xarakter yaratish uchun psixofiziologik belgilar va badiiy nutq vositalaridan foydalanish o'ziga xos ahamiyatga ega. Bu tasvir vositalari asosan badiiy asarning diologik qismida namoyon bo'ladi. Professor Yo'ldosh Solijonov:[10:119] Badiiy asarning muhim komponentlaridan biri hisoblangan dialog o'zining mustaqil qurilish tizimiga va qat'iy tartib–qoidalariga egadir. Dialog muallif bayoni bilan chambarchas bog'langan holda rivojlanadi. U bayon tarkibini tashkil etishda muhim rol o'ynaydi va nutq sistemasidan xoli tarzda mavjud bo'lolmasligini ta'kidlaydi.

Badiiy asarda dialog bilan birga monolog ham asosiy komponentlardan biridir. Monolog qahramonning ichki kechinmalari, cheksiz o'y-hayollarini, psixologik holatini o'zida aks ettiradi. Diolog, monolog badiiy asar kompozitsiyasida qahramonlar psixofiziologik holatini aks ettirishda o'zining alohida o'rniga ega. Badiiy matnlarda, ayniqsa, nasriy asarlarda sukutning psixofiziologik funksiyasi badiiy psixologizmning muhim detallaridandir. Sukut holatlari shunchaki yozib o'tilmaydi, albatta. Har bir holat muallif tomonidan izohlanib boriladi. "Aksariyat badiiy matnlarni kuzatadigan bo'lsak, sukut sholati faqatgina "sukut saqlamoq" yoki "sukut qilmoq" jumalari bilan ifodalanib qolmaydi. Aksincha vaziyatdan kelib chiqqan holatda "tin olmoq", "sas–sadosiz", "og'ir sukunat",

“tikilib qolmoq”, “unsiz”, “termulib qolmoq”, “so‘zsiz qolmoq”, “qotib qolmoq”, “jim bo‘lmoq”, “sukunat cho‘kmoq”, “tiq etgan tovush eshitilmasligi”, “jim”, “sado chiqmaslik”, “gap-so‘zsiz”, “suv quygandek jimjit”, “tili kalimaga kelmaslik”, “haykaldek qotmoq”, “ko‘z tikib qolmoq”, “tosh kabi qotmoq” va shu kabi boshqa jumlar bilan ifodalanganligining guvohi bo‘lamiz.[8:35-37]

Oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlar – muhabbat, ishonch, hurmat, e‘tibor asosida shakllanadi. Agar bu munosabatlar barqaror va ijobiy bo‘lsa, insonning psixofiziologik holati ham sog‘lom bo‘ladi. Aksincha, nizolar, e‘tiborsizlik, tushunmovchiliklar stress gormonlari (kortizol, adrenalin) ning ko‘payishiga, yurak urishining tezlashishiga, uyqu buzilishiga olib keladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Badiiy asardagi psixologik belgilar o‘rni, xususan, mimikaning ma‘lum psixologik tavsifi haqida Aristotel ham “Fiziognomika” asarida quyidagicha fikr yuritgan: Muloqot jarayonida u yoki bu darajada anglangan ma‘lumotlar shunchaki berilmaydi, balki muloqot xarakterini belgilaydi.[3:1029]

Said Ahmad hikoyalarida oila psixologiyasiga alohida e‘tibor beriladi. Ular oiladagi aloqalar, o‘zaro munosabatlar va psixologik jarayonlar haqida chuqur tasavvur yaratib, o‘z hikoyalarida oilaning har bir a‘zosining ruhiy va hissiy holatini ko‘rsatib beradi.

Said Ahmad asarlarida oila ichidagi munosabatlarning ruhiy jihatlarini kuchli aks ettiradi. U oiladagi kishilar o‘rtasidagi hissiy aloqalar, shuningdek, o‘zaro tushunish va o‘zaro hurmatni ta’kidlaydi. Uning hikoyalarida oila a‘zolarining bir-biriga bo‘lgan munosabati, ular o‘rtasidagi ziddiyatlar va o‘zaro hurmatning yo‘qligi muhim o‘rin tutadi. O‘tkazilgan hayotiy tajribalar, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi muammolar va bu muammolarning psixologik oqibatlar haqida gapiriladi.

Said Ahmadning **“Azroil o‘tgan yo‘llarda”** hikoyasida Said Ahmad oilaning ichki psixologik dunyosiga chuqur nazar tashlaydi. U oiladagi murakkab vaziyatlarni, ota va onaning farzandlar bilan munosabatlarini tasvirlaydi. Ota va o‘g‘il er-xotinning bir-biri bilan bo‘lgan aloqalari va oilaning psixologik botiqligi hikoya markazida turadi. Erining hiyonat qilayotgan paytida o‘lishi, Gulandomning erini jasadini ustida turarkan psixofiziologik holatini yozuvchi shunday tasvirlaydi. “Uyga olib kelishganda Qo‘chqorning tanasi hali sovumagandi... Xotini Gulandom faryod urib unga o‘zini otdi. Otdi–yu bir daqiqa o‘tmay nafrat bilan sapchib o‘rnidan turib ketdi. Murdadan fransuz atirining hidi kelardi. Uning yuzlarida, bo‘yinlarida, ko‘kraklarida lab bo‘yog‘ining qip-qizil izlari aniq ko‘rinib turardi. Shu topda o‘lgan Qo‘chqor emas, Gulandom edi. Orzulari, ko‘ksida yongan olovdek muhabbat, erkalanishlari bir zumda jon berdi-qo‘ydi”.[2:76] Oila psixologiyasi va psixofiziologiya sohalarining kesishgan nuqtasida, og‘ir emotsional voqealarga, xususan, ham hiyonat, ham erining o‘limiga guvoh bo‘lish, shaxs psixikasi va fiziologiyasi qanday javob berishini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Bunday holat odatda kuchli stress, travmatik tajriba va murakkab hissiy konfliktlarni yuzaga keltiradi. Bu esa organizmda turli psixofiziologik o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Qo‘chqor bilan turmush qurish uchun ota-onasidan voz kechib kelgan 8 yil turmush qurgan eri hiyonat qildi. Bu vaziyatdagi Gulandomning psixologik holatini yozuvchi mahorat bilan ifodalaydi. “Marhumning yigirmasi o‘tguncha ham Gulandomning ko‘zida hech kim yosh ko‘rmadi. Go‘yo u erining emas, begonaning marakasida yurgandek edi. Qulog‘ida ziragini, bo‘ynidan shoda–shoda marvaridlarini, barmoqlarida chaqnagan uzuklarini olib qo‘ymadi. U azador uy sohibasi emas, to‘y egasidek edi”.[2:76] Oila psixologiyasida turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi ishonch, sadoqat va emotsional bog‘liqlik muhim psixologik omillar sifatida qaraladi. Hiyonat, bu kontekstda, oilaviy munosabatlarda jiddiy psixologik va axloqiy inqirozning ko‘rinishi hisoblanadi. Er tomonidan xotiniga nisbatan sadoqatsizlik qilish va shu holatda erning o‘ldirilishi voqeasi badiiy psixologik jihatdan murakkab va ko‘p qatlamli tahlilni talab qiladi. Bu holatlarni tahlil qilishda nafaqat shaxsiy, balki madaniy, ijtimoiy va axloqiy omillarni ham inobatga olish lozim.

Xotin bu holatda ikki tomonlama psixologik bosim ostida qoladi: birinchisi – hiyonat faktining o‘zi bilan bog‘liq ichki ijtimoiy va axloqiy nizolar; ikkinchisi esa – erning to‘satdan va zo‘ravonlik bilan o‘limi natijasida yuzaga kelgan psixologik shok va ehtimoliy pushaymonlik hissi. Odatda, bunday holatlarda xotin o‘zini aybdor his qilish, psixologik inkor (denial), yoki o‘ziga nisbatan salbiy baholash kabi mexanizmlarni ishga soladi.

Asarlarda oila ichidagi ziddiyatlar, ajralishlar yoki farzand tarbiyasidagi muammolar ijtimoiy muhit, iqtisodiy sharoit va ma‘naviy inqiroz bilan bog‘lab ko‘rsatiladi. Bu esa adibning ijtimoiy mas‘uliyatini aks ettiradi.

TILSHUNOSLIK

Yuqoridagi “Azroil o‘tgan yollarda” hikoyasining yakunida qahramonlar xarakterida psixofiziologik katarsisni ko‘ramiz.”Bergan ne‘matlaringga ming bora shukur. Davridavron surdim, kurashlardan yakkakift bo‘lib chiqdim. Xorlik, zorlik ko‘rmadim. Endi bas, qiynalib ketdim. O‘z bolam meni yurt ko‘zida sharmisor qildi. Omonatingni ol, Allohim. Bas, endi ketay. Bu dunyoda endi yaxshilar yashasin. Tongotar maxali Jalol polvonning joni uzildi”. [2:79] “Katarsis” atamasi Aristotelga borib taqaladi va bu tushuncha asosan tragediyada tomoshabinning qo‘rquv va achinish orqali ruhiy poklanishini anglatadi. Lekin zamonaviy adabiyotshunoslikda katarsis faqatgina tomoshabin yoki o‘quvchiga emas, balki bevosita qahramonning o‘ziga taalluqli ichki holat sifatida ham tahlil qilinadi. Ushbu holatda ota obrazida yuz berayotgan ruhiy qulash, iztirob, chin dildan tavba qilish va o‘limdan najotni Ollohdan so‘rash – uning ruhiy tozalanish jarayonining yakuniy bosqichi sifatida talqin qilinadi.

Qahramon ota sifatida jamiyatdagi ijtimoiy vazifani bajargan, oilaviy qadriyatlarni asrashga harakat qilgan, farzandini tarbiya qilgan. Ammo farzandning xatolari – bu otaning hayotiy mehnatini puchga chiqaradi. Natijada, ota o‘zini nafaqat jamiyat, balki Alloh oldida ham ojiz, xor va noloyiq his qiladi. Bu yerda o‘z-z‘idan paydo bo‘lgan fojiaiy anglash jarayoni – psixologik katarsisning markaziy o‘qi bo‘lib xizmat qiladi. Bunday holat badiiy asarda turli obrazlar, ramziy ifodalar va ichki monologlar orqali ifodalanadi. Masalan, tun – zulmat, qayg‘u va gunoh ramzi sifatida ishlatiladi. Ota kechasi bilan ibodat qilishi, Ollohdan rahm so‘rashi – bu uning o‘z vijdoni oldida so‘nggi imtihonini ifodalaydi. Tong nuri esa – ilohiy adolat, poklanish va najot ramzi sifatida qahramonning joni uzilishi bilan yakun topadi. Bu lahzada nafaqat voqelik sifatida, balki badiiy–ramziy mazmunda chuqur poetik yuksaklik kasb etadi. “Bu birinchi galda, asar tilida ko‘rinadi. Chunki til faqat belgilar tizimi sifatida emas, balki xalqning shakllangan madaniyatini ham namoyon etuvchi vositadir. Tilda xalqning ko‘p asrlik tajribasi, millat madaniy hayotining tarixi, uning orzu va armonlari aks etadi, saqlanib qoladi hamda ajdodlardan avlodlarga o‘tib boradi. Shuning uchun til – milliy o‘ziga xoslikni saqlovchi vosita, eng muhimi tarixiy-madaniy qadriyatdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, belgi va obraz hikoya kompozitsiyasida alohida o‘ringa ega. Chunki ko‘rish va so‘zlash o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, aynan, obraz va u anglagan belgilar mohiyati orqali o‘tadi. Bunda obraz va uning nutqi orqali namoyon bo‘layotgan mazmun so‘zlovchining ichki olami, psixologiyasi haqida yetarli ma‘lumot beradi. Shu usul orqali yozuvchi o‘z qahramonini o‘quvchi ongida to‘la va asarga muvofiq shakllanishiga hissa qo‘shadi”. [5:82] Ichki monologda ishlatiladigan so‘zlar, masalan: *“Tangrim, bu jonni o‘zing bergansan. Endi omonatingni ol. Sen bergan jonga qasd qilib gunohga botishni istamayman. Jonimni o‘zing ol...”* singari iboralar orqali ota xarakteridagi fojiaiy chuqurlik va ma‘naviy tozalikka intilish aniqlik bilan ochib beriladi. Yozuvchi bunday badiiy tasvir orqali qahramon psixologik va fizologik jihatdan birlasha olganini isbotlaydi. Bu holat orqali badiiy asarda ruhiy iztirob, insoniy ojizlik, imon va tavba, oxir–oqibat esa ilohiy qabul shaklidagi katarsis ifodalanadi. Adabiyot bu jarayonni nafaqat ko‘rsatadi, balki o‘quvchini ham bu iztirobda qatnashishga majbur qiladi, uni ham ruhiy jihatdan tozalashga undaydi.

XULOSA

Oilaviy munosabatlar inson psixofiziologik holatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Barqaror va sog‘lom oilaviy muhit insonning ruhiy hamda jismoniy salomatligi garovidir. Shuning uchun har bir inson o‘z oilasidagi muhitni sog‘lomlashtirish, emotsional barqarorlikni saqlashga intilishi lozim. Bu nafaqat shaxsiy hayot, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhimdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ahmadjonova O. Badiiy asar personajlari ruhiy va jismoniy holatlari tasvirining o‘zaro uyg‘unlashuvi (A.Muxtorning “Tug‘ilish” va “Chinor” romanlari misolida). Filol. fan. b. fals. dok... diss. (PhD) – Farg‘ona, 2023. –131 b.
2. Ahmadov S. Umrim bayoni. – Toshkent: Sharq, 2008. – B.76.
3. Постмодернизм. Энциклопедия. – Минск: Интерпрессервис; Книжный Дом, 2001. – С.1029
4. Психофизиология (юнунча-psyche, рух; physis-табиат; logos-таълимот) – шахс рухиятидаги ўзгаришларнинг унинг табиатида акс этишини ўрганувчи таълимот. “Афтини буриштириб, деди” жумласидаги “афтини буриштириб” жумласи сўзловчининг психофизиологияси ҳақида тўлиқ маълумот беради. “Қошларини кериб”, “кўзларини олайтириб”, “қўлини белига қўйганча” каби жумлаларида ҳам психофизиологик ҳолат юзага чиқади.
5. Қаюмов А. Ҳозирги ўзбек насрида миллий характер ва бадий маҳорат (Ўткир Ҳошимов ва Наби Жалолиддин ҳикоялари мисолида): Филол. фан. б. фалс. док... дисс. (PhD). – Фарғона, 2018.

6. Quronov D., Mamajonov Z., M.Sheraliev. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr. 2010.
7. Қўчқорова М. Бадий сўз ва руҳият манзаралари. – Тошкент: Muharrir, 2011. – Б.175.
8. Raxmonova M. Badiiy matnlarda sukutning ifodalanishi. Central Asian journal of education and innovation, Volume 3, Issue 2, February 2024 P.-35-37
9. Said Ahmad. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2010.
10. Солижонов Й. Деталлар тилга кирганда. Ўзбек адабий танқиди:антология. – Тошкент: Turon-Iqbol, 2011
11. Umurov X. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: A.Qodiriy, 2004. – B. 52-54.
12. Чернышевский Н. Характер человеческого знания. – Москва , 1885.